

Samarqand yoshlari

Yoshlar va o'smirlar, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy gazeta



2023-yil, 15-iyun, 11(25) // ISSN: 21813566



Bahslarda qit'amizdan eng kuchli 50 nafar ayol va 50 nafar erkak sportchi ishtirok etdi

Buni o'qing...

YOSHLAR TOMONIDAN SODIR ETILGAN JINOYATLAR 7,3 FOIZGA KAMAYGAN

Loyihalarning 311 tasini harbiy sport musobaqalari, 339 tasini harbiy-vatanparvarlik ruhidagi targ'ibot tadbirlari va 41 tasini harbiy qismlarga ekskursiyalar va harbiy oromgoahlar tashkil qildi.

[2-sahifa](#)

TANQIDMI YOKI TARG'IBOT?

"qosh qo'yaman deb, ko'z chiqarmang!"

Avvaliga jinoyatlar bilan bog'liq holatlarning ayanchli yakuni o'rnak bo'lishi uchun yoritilgan mavzular bugun shunchaki shov-shuv va e'tiborni jalb qilish uchun ommaga taqdim qilinmoqda.

[3-sahifa](#)

O'ZINGIZNI KAMSITMANG

Yo'ning faqat sen tomonida gullar borligini va narigi mustahkam chelakning tomonida hech qanday gul yo'qligini payqaganmisan?

[7-sahifa](#)

KEYINGI SONDA:

["Changalzor qonuniyatlari"](#)

[Loqaydlik ortidagi talofat](#)



Ayrim

tadbirkorlik

faoliyati bilan

shug'ullanuvchi yuridik

shaxslar tadbirkorlik

subyekt sifatida davlat

ro'yxatidan o'tkazilgan

kundan boshlab 3 yil

muddat davomida

foyda solig'i va mol-

mulk

solig'ining

yarmini

to'laydi.



"Triatlon Cup Samarkand" MUSOBAQASI BO'LIB O'TDI

9-10-11-iyun kunlari triatlon bo'yicha "2023 Asia Triathlon Cup Samarkand" xalqaro musobaqasi va O'zbekiston chempionati bo'lib o'tdi.

O'zbekiston Triatlon federatsiyasi ushbu tadbirlarni Yoshlar siyosati va sport vazirligi, Milliy Olimpiya qo'mitasi, Milliy Paralimpiya qo'mitasi, Samarqand viloyati hokimligi va boshqa hamkor tashkilotlar ko'magida tashkil etdi.

Triatlon o'ta murakkab sport turi hisoblanadi va bunday musobaqani o'tkazish alohida tadorik va sharoit talab etadi. Shuning uchun ham jarayonlar davomida sportchilarning, tomoshabin va boshqa qatnashchilarning xavfsizligini ta'minlash ham muhim masalalardan ekanligiga alohida e'tibor qaratildi.

[Davomi 2-betda](#)

"YOSHLAR OYLI" DAVOM ETMOQDA

Har qanday davlatning tayanchi ilmi va zukko avlodlardir. Ularning bosayotgan har bir qadami va chiqarayotgan qarorlari jamiyat hayoti uchun ahamiyatlidir.

Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish bo'yicha belgilangan topshiriqlar ijrosini ta'minlash, yoshlarni Vatanga sadoqat, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish maqsadida "Yangi O'zbekiston yoshlari, birlashaylik!" shiori ostidagi yoshlar sayllari va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etilmoqda.



[Davomi 3-betda](#)

"Triatlon Cup Samarkand" MUSOBAQASI BO'LIB O'TDI



(Davomi. Boshlanishi 1-betda)

Samarqand mazkur xalqaro musobaqani o'tkazish uchun mavjud imkoniyatlar, ayniqsa, xalqaro suzish talablariga javob beruvchi eshkak eshish kanali bir necha yillardan buyon xalqaro musobaqalarga mezbonlik qilayotganligi inobatga olinib, yana bir bor nufuzli xalqaro sport tadbiri o'tkaziladigan maskan sifatida tanlandi. Ta'kidlash joizki, o'tgan davr mobaynida eshkak eshish kanalida ko'plab xalqaro bellashuv hamda chempionatlar muvaffaqiyatli o'tkazilgan.

9-iyun kuni O'zbekiston tarixida ilk bor para-triatlon bo'yicha Osiyo chempionati bo'lib o'tdi. Unda dunyoning 80 nafar sportchisi ishtirok etib, ular SPRINT masofasida (750 metr suzish, 20 kilometr velosipedda harakatlanish, 5 kilometr yugurish) o'zaro raqobatlashdi.

10-iyun kuni triatlon bo'yicha Osiyo kubogi musobaqalari bo'lib o'tdi. Unda qit'amizning eng sara sportchilari: 50

nafar ayol va 50 nafar erkak ishtirok etgan bo'lsa, shu kunning o'zida Osiyo kubogi doirasida Markaziy Osiyo sportchilari o'rtasida (CATA - Central Asia triatlon Association) alohida musobaqa va taqdirlash marosimi tantanali ravishda o'tkazildi.

Musobaqaning so'nggi kuni — 11-iyun sanasida triatlon bo'yicha O'zbekiston chempionatiga start berilib, unda STANDART va SUPER SPRINT masofalarida "Elite", U-23, 15-17 yoshlar va 16-19 yoshli o'smirlar o'rtasida triatlon bo'yicha milliy va yoshlar terma jamoasiga saralash bahslari o'tkazildi.

Shuningdek, shaxsiy va jamoaviy musobaqalarda professionallar toifasiga kirmagan 300 nafar havaskor

sportchilar ishtirok etishdi. Ushbu musobaqa ikki masofada o'tkazildi: olimpiya (1500 metr suzish, 40 kilometr velosipedda harakatlanish, 10 kilometr yugurish) va super-sprint (350 metr suzish, 13 kilometr velosipedda harakatlanish, 3 kilometr yugurish).

Musobaqalar Samarqand eshkak eshish kanali hududi — "Buyuk ipak yo'li" xalqaro sayyohlik majmuasida o'tkazildi.

Jarayonlar yakunida g'olib va sovrindorlar tantanali ravishda taqdirlanishdi.

Yurtimizda o'tkazilayotgan bu kabi xalqaro bellashuv va nufuzli musobaqalar nafaqat xalqaro maydondagi o'rnimiz mustahkamlanishida, balki yangi iste'dodlarning kashf etilishida muhim ahamiyat kasb etishi bilan ham e'tiborlidir.



Samarqand viloyatida yoshlar 1 072 000 nafarni tashkil etadi.

2023-yilning o'tgan davrida yoshlar tomonidan 471 ta turli jinoyatlar sodir etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich o'tgan yilgiga nisbatan 7,3 foizga kamaygan.

YOSHLAR TOMONIDAN SODIR ETILGAN JINOYATLAR 7,3 FOIZGA KAMAYGAN

O'smirlar o'rtasida uchrayotgan qonunbuzarlik holatlari hamda katta-kichik jinoyatlarning oldini olish maqsadida tegishli idoralar tomonidan qator amaliy ishlar olib borilmoqda.



Jumladan, har bir yosh tomonidan sodir etilgan jinoyatning kelib chiqish sabablari tegishli tashkilotlar tomonidan batafsil o'rganilib, ko'ngilsiz holatlarni bartaraf etish va jinoyatchilikning oldini olish maqsadida "Tungi", "Davomat", "Bozor bolasi" kabi nazorat tadbirlari muntazam ravishda o'tkazilib kelinmoqda.

Shuningdek, yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish borasida Adliya boshqarmasi bilan birgalikda targ'ibot tadbirlari, aksiya va "Yoshlar sayllari", ko'chma loyihalar amalga oshirilayotir. Yuqoridagi yosh balansiga asosan yoshlar "qizil", "sariq", "yashil" toifalarga ajratildi.


"Qizil" toifaga mansub bo'lganlar asosan

probatsiya nazoratidagilar, profilaktik hisobda turganlar, jinoyat sodir etishga moyil bo'lganlar, notinch oila farzandlari, migratsiyadan qaytib kelganlar hamda oilaviy ajrim yoqasidagilar, giyohvanad va psixotrop moddalar iste'mol qiluvchilar, nogironligi bo'lganlar, surunkali kasalligi bo'yicha ro'yxatda turuvchilar bo'lib, ular bilan alohida shug'ullanish, jamiyatda o'z o'rinlarini topishlarida ko'maklashishni talab qiladi. Shuning uchun ham ushbu toifaga mansub bo'lgan yoshlar viloyat, tuman (shaharlar) dagi jami 531 nafar rahbarlarga birlashtirildi.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida 2023-yilning o'tgan 1-choragi davomida 691 ta turli loyihalar tashkil etilgan bo'lib, ularda 20 039 nafardan ortiq yoshlar faol ishtirok etishdi. Loyihalarning 311 tasini harbiy sport musobaqalari, 339 tasini harbiy-vatanparvarlik ruhidagi targ'ibot tadbirlari va 41 tasini harbiy qismlarga ekskursiyalar va harbiy oromgohlar tashkil qildi.

Ushbu tadbirlarni o'tkazishdan ko'zlangan asosiy maqsad yoshlarning ma'nan barkamolligiga erishish orqali mamlakatdagi jinoyatlar sonini qisqartirish hamda yoshlar qalbida Vatanga muhabbat tuyg'usini yanada mustahkamlashdir.

G'ofurjon BOBOBEKOV.



Jomboy tuman "Ahmadjon Qurbonov" mahallasidagi beshlik o'rtasida barcha masalalarda hamkorlik mavjud.

MAHALLA BESHLOGI – BIR OILA

Yoshlarni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga jalb etish, ularning axborot texnologiyalari bo'yicha savodxonligini oshirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta'minlash vazifalarini o'z ichiga olgan beshta muhim tashabbus olimpiadasi doirasidagi tadbirlar, shu bilan birga, yoshlarda zamonaviy tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish va yangi ish o'rinlarini yaratish orqali ularning bandligini ta'minlash, voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklar va jinoyatchilik profilaktikasini samarali tashkil etish, oilaviy ajrimlarning oldini olish, yosh avlodda mustahkam vatanparvarlik g'oyasi hamda qat'iy fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish borasida qator muammolar yechimi o'ziga xos boshqaruv modeli orqali shakllandi.

Mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy rivoji, tinchligi uchun mas'ul bo'lgan mazkur tarkib bir yoqadan bosh chiqarib, hamjihatlikda ish olib bormoqdalar. Zero, hamjihatlik bor joyda har qanday muammo ham oson hal qilinishi mumkin. Yurtimiz kelajagi va osoyishtaligi uchun hammamiz birdek javobgarmiz.

Yulduz MUHAMMADIYEVA,
mahalla yoshlar yetakchisi.

Meros deganda birinchi bo'lib merosxo'rga o'tadigan mol-mulk, pul mablag'lari tushuniladi. Ammo meros qoldiruvchining qarzlari bo'lsa-chi, uni kim to'laydi?

Bunda uch xil holat mavjud:

1. Merosxo'rlar qarz borligidan xabardor bo'lganda...

Agar qarz ko'p miqdorda bo'lmasa, merosxo'r uni to'lashi kerak.

Merosxo'r meros qoldiruvchidan olingan mol-mulk miqdoridagina qarzni qaytaradi. Ya'ni, misol uchun, agar qoldirilgan mol-mulk qiymati 100 million so'm bo'lsa, unda vasiyat qiluvchining qarzlari uchun ushbu summadan ko'p pul to'lanmaydi.

2. Merosxo'rlar qarz haqida bilgan, lekin qarzni to'lashga imkoni bo'lmaganda...

Bunday holda ko'pincha merosdan voz kechiladi, qarz ularga majburiyat bo'lib o'tmaydi.

Ammo shunday istisno holatlar ham bo'ladiki, masalan, sud vafot etgan qarzdorning farzandlaridan



Merosxo'r meros qoldiruvchining qarzini to'laydimi?

so'tib, o'z ulushiga mos miqdorda qarzdorning qarzini to'lashi kerak bo'ladi.

Ushbu huquq va majburiyatlar merosxo'rga o'tmaydi: yuridik shaxs hisoblangan tijorat tashkilotlari va boshqa tashkilotlarga a'zolik, ularda ishtirok etish huquqlari, agar qonun yoki shartnomada boshqa hol belgilangan bo'lmasa; hayotga yoki sog'liqqa yetkazilgan zarar uchun tovon undirish huquqi; aliment majburiyatlari tufayli yuzaga kelgan huquqlar va majburiyatlar; mehnat va ijtimoiy ta'minot to'g'risidagi qonunchilik asosida pensiya, nafaqa va boshqa to'lovlari olish huquqi.

Mulkiy huquqlar bilan bog'liq bo'lmagan shaxsiy nomulkiy huquqlar meros tarkibiga kirmaydi.

Farangiz AHMEDOVA,
Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius.

biridan (farzandi uning xonadonida yashagan, kommunal to'lovlarni to'lagan, ta'mirlagan va h.k.) uning kredit qarzini undiradi, garchi u meros guvohnomasini olish uchun ariza bermagan bo'lsa ham.

3. Merosxo'rlar qarz mavjudligi haqida bilmagan, qarzdorlik bo'yicha ma'lumotlar ular meros guvohnomasini olgandan keyin kelganda...

Bu holatda merosxo'r, agar o'z mablag'lari yetmasa, meros mulkining bir qismini yoki to'lig'icha



Ezgulik va yovuzlik, yaxshi va yomon, topish va yo'qotish singari tushunchalar har doim yonma-yon kelgan. Ularni ayro tasavvur etish mushkul. Shuning uchun ham inson ongi doimiy ravishda ana shunday qarama-qarshi tuyg'ular ta'sirida bo'ladi.

Bugungi axborot asrida, ayniqsa, insonlar diqqatiga sazovor bo'lish yo'lida ketayotgan keskin kurash jarayonida bu ta'sir yanada kuchaygan.

TANQIDMI yoki TARG'IBOT?

"qosh qo'yaman deb, ko'z chiqarmang!"

(27-iyun — matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni)

Ijtimoiy tarmoqlar, OAV va turli saytlarda kundalik ma'lum vaqtimizni o'tkazar ekanmiz, beixtiyor o'qiganlarimiz xabarlar oqimiga tushib qolamiz. Ya'ni ijobiy mazmundagi xabarlar ongimizga yaxshi ta'sir qilsa, turli salbiy kontentlar bilan miyamiz kuchli bosim ostida qoladi. Ayniqsa, jinoyatlar va qotillik bilan bog'liq mudhish xabarlar bevosita kundalik turmush faoliyatimizga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Eng yomoni, ijtimoiy tarmoqlarda yoritilayotgan hodisalarning barchasi ham aniq va ishonchli emas. Ularning aksariyatidan ko'zlangan asosiy maqsad aholini yuz berayotgan voqea-hodisalardan xabardor qilish emas, balki yuritilayotgan sahifa va saytlardagi foydalanuvchilar sonini ko'paytirish va bu orqali daromadni yanada oshirishdir. "Hozir odamlarga nima qiziq? Shov-shuv, "qora xabarlar" qiziq", xabarning o'quvchiga o'tkazajak salbiy ta'siri bilan hisoblashib ham o'tirishmaydi.

Axborot qabul qiluvchining yoshi, psixologik holatiga ko'ra xabarning ta'siri ham turlicha bo'lishi, tabiiy. Shuning uchun ham OAV yoki ijtimoiy tarmoqlar orqali o'lim, qotillik kabi xa-

Toshkentda ayol tegajog'lik qilgan hamkasbini pichoqlab o'ldirdi.



barlar haqida ma'lumot berayotganda ularni turli yosh vakillari kuzatib borishini inobatga olish lozim. Negaki yosh bolalarda kuchli ta'sirlanish oqibatida "stress" va tajovuzkorlik holatlari kuzatilishi mumkin. OAVda efirga uzatilayotgan qotillik yoki jinoyat bilan bog'liq ko'ngilsiz lavhalar ham nafaqat yoshlar va o'smirlarning, hatto biz kattalarning ham ruhiy bosim ostida qolishimizga sabab bo'lmoqda.

Goho shunday xabarlar dach kalamizki, ular aksariyat kishilarni sarosimaga solib, tushkun ahvolga tushishiga sabab bo'ladi. Avvaliga zamon-doshlarimizga jinoyatlar bilan bog'liq holatlarning ayanchli yakuni o'rnatilishi uchun yoritilgan mavzular bugun shunchaki shov-shuv va e'tiborni jalb qilish uchun ommaga

taqdim qilinmoqda.

Bunday holatlarning internet tarmoqlarida soniyalar sayin ildiz otib borishi bora-bora insonlar uchun "ur-yiqit", qotillik va mushtumzo'rlikning odatiy holga aylanib qolishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, yoshlar va o'smirlar orasida tajovuzkorlikning ortib ketishi, insoniy fazilatlarining butkul barham topishi kuzatilib, mehr va oqibat singari tushunchalarni o'ziga yot deb bilgan, ularning o'rniga "haqini ajratib oladigan", "tegirmonga tushsa butun chiqadigan", "dahanaki janglarda pishib ketgan" jangari avlod ulg'ayishiga zamin yaratmoqda.

Ko'ngilni xira qiluvchi qonli lavhalarni butun jamiyatga tarqatmasdan ham muammoga yechim topishning iloji yo'qmikan? Omma e'tiboriga taqdim etish taqazo qilgan taqdirda xabarning ta'sir doirasini inobatga olgan holda ish tutish jozi emasmi, aslida? Bugun siz-u biz duch kelayotgan va soatlar, kunlar va oylaracha xayolimizdan chiqmay yurgan ayrim holatlardan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, bu haqda hali aytarli hech kim bosh qotirib ham ko'rgani yo'q!

(Davomi. Boshlanishi 1-betda)



"YOSHLAR OYLIGI" DAVOM ETMOQDA

30-iyun — "Yoshlar kuni" munosabati bilan iyun oyida mamlakatimiz bo'ylab "Yoshlar oyligi" nishonlanib, oylik doirasida "Yangi O'zbekiston yoshlari, birlashaylik!" shiori ostida yoshlar sayllari, madaniy-ma'rifiy va ko'ngilochar tadbirlar, sport musobaqalari, intellektual o'yinlar, galakonsertlar "mahalla - tuman (shahar) - viloyat" darajasida tashkil etilmoqda.

Xususan, oylik doirasida Kattaqo'rg'on va Paxtachi tumanlarida yoshlarning faol ishtirokida o'tkazilgan tadbirlar, bellashuv va ko'rik-tanlovlar yoshlarning bugungi islohot va imkoniyatlarni katta qiziqish hamda g'ayrat va shijoat bilan qabul qilayotganliklaridan dalolatdir. 16-iyun kuni Samarqand shahrida, 17-18-iyun kunlari esa Urgut va Past Darg'om tumanlarida, iyun oyining oxiriga qadar barcha tuman va shaharlarda yuqori saviyada o'tkazilishi rejalashtirilgan festivallarga alohida tadorik ko'rilib, yoshlarning faol ishtiroki ta'minlanmoqda.

"Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida 12-15-iyun kunlari Stritbol musobaqasi o'g'il bolalar o'rtasida, 16-20 iyun kunlari esa qizlar o'rtasida o'tkazilishi rejalashtirilgan bo'lsa, 13-iyun kuni "Oshpazlik" tanlovining respublika bosqichi start olib, yuqori saviyada o'tkazildi. Yoshlarni ma'nan ham jismonan chiniqtirish, ularning dunyoqarashi va fikrlash doirasini kengaytirish ona yurt ertasi uchun teran fikrli, ziyrak va zukko farzandlar tarbiyalab, xalq koriga yarashi uchun nafaqat ota-ona, balki barcha O'zbekiston fuqarolari birdek mas'ulligimizni unutmashimiz darkor.

2022-2026-yillarda umumiy o'rta ta'lim muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlashning asosiy prognoz ko'rsatkichlariga ko'ra, maktablarni qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va



jihozlash quyidagi mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi: -ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturlari doirasida ajratiladigan mablag'lar; -Davlat byudjeti mablag'lari; -xalqaro moliya institutlarining kreditlari va grantlari; -homiyluk xayriyalari, xususiylar hamda nodavlat ta'lim tashkilotlari mablag'lari.

FARZANDLARINGIZNI GIYOHVANDLIK CHANGALIDAN ASRANG!

26-iyun — xalqaro giyohvandlikka qarshi kurashish kuni

Soniya sayin jadal sur'atlarda o'zgarib borayotgan bu olamda vujudga kelayotgan vaziyatni o'z foydasiga o'zgartirish, ya'ni imkoniyatlardan unumli foydalanish har bir insonning o'z qo'lida. Ana shunday keskin va tahlikali zamonda to'g'ri yo'lga tanlay bilgan inson o'zi uchun yorug' kelajak qurayotgan bir vaqtda, loqaydlilik va ilmsizlik oqibatida turli illatlar girdobiga tushib, ortga yo'l topolmay qimmatli umrini boy berayotganlar ham kamchilik emas, afsuski. Ana shunday illatlardan biri, shubhasiz, ayanchli oqibatlarga yetaklovchi, "o'rgimchak to'ri" deya atalshmish giyohvandlikdir.

Giyohvandlik XXI asrning global muammolaridan biridir. O'rta asrlarda insoniyat hayotiga jiddiy xavf solgan vabo va o'lat kabi ofatlar bugungi sivilizatsiya zamoniga kelib o'z o'rnini giyohvandlik illatiga bo'shatib berdi. Bu illatning boshi berk ko'chasiga kirib qolgan kimsa borki, o'zining tinch, farovon va baxtli hayotini qora zulmatga cho'mdirishi muqarrar. Eng yomoni, zahri qotil nafaqat bir kishiga, balki butun jamiyatga zarar keltiradi. Qanday qilib deysizmi? Giyohvandlik vositalari ta'siriga tushib qolgan hech bir kimsa na aqlan va na jismonan sog'lom bo'lmaydi, ulardan tug'ilajak begunoh farzandlar esa ma-



Statistik ma'lumotlarga ko'ra dunyoda 500 milliondan ortiq odam giyohvandlikka yo'liqqan. Uning aksariyat qismini 30 yoshgacha bo'lganlar tashkil etmoqda. Buning oqibatida har yili 200 mingdan ortiq inson hayotdan ko'z yumadi. Shu bilan birga, jahonda sodir etilayotgan jinoyatlarning 57 foizi giyohvandlar hissasiga to'g'ri keladi.

taraf etish mushkul.

Dunyoqarashi endigina shakllanib borayotgan, bor kuch-g'ayratini faqat bilim olishga, izlanishga, hunar o'rganishga sarflashi kerak bo'lgan o'smirlarni aldov yo'li bilan giyohvandlik qurboniga aylantirayotgan kimsalar ozmi? Ularning birdan bir maqsadi moddiy manfaat, qilmishlari oqibatida kimningdir hayoti ostin-ustun bo'lishi-yu, necha-necha insonlarning qon yig'lashi haqida esa o'ylab ham ko'rishmaydi. Qanchadan qancha oilalarning yostig'ini quritayotgan bu illatga qarshi yolg'iz kurashib bo'lmaydi. Butun jamiyat, hattoki butun dunyo ahli birlashsagina, uning ildiziga bolta urish, qurbonga aylanayotganlarni saqlab qolish mumkin.

Aziz ota-onalar! Farzandingiz tarbiyasiga aslo befarq bo'lmang. Ahamiyatsizdek ko'ringan kichik xato-kamchiliklar hamda e'tiborsizlik katta yo'qotishlarga sababchi bo'lishi mumkin.

Shomaxmat MULLAYEV,
RINIATM Samarqand viloyat
mintaqa filiali shifokori.

CHIN YETIMLARGA OSHIRILGAN STIPENDIYA TO'LANADI

Yoshlarga zaruriy shart-sharoit va qulayliklar yaratib berilishi nafaqat mamlakatda ta'lim sifatining oshishida dobocha bo'ladi, balki ularning yashirin iqtidorlarini namoyon etishlariga turtki bo'lishi, shubhasiz.

Hukumatimiz tomonidan ijtimoiy himoya daftarlariga kirgan, I va II guruh nogironlari, chin yetimlar va ota-ona-sining qaramog'idan mahrum bo'lgan shaxslarga nisbatan stipendiya bazaviy hisoblash miqdoriga nisbatan oshirilgan miqdorda to'lab beriladi. To'liq davlat ta'minotida bo'lgan yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar sirasiga kiruvchi, jumladan, to'lov-kontrakt asosida ta'lim oluvchi talabalarga stipendiya to'lovlari O'zbekiston Respublikasining respublika budjeti mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi.

Avvalgi o'quv semestri yakuni bo'yicha fanlardan o'zlashtirish ko'rsatkichlaridan qat'iy nazar to'liq davlat ta'minotida bo'lgan o'zlashtirayotgan yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan

mahrum bo'lgan bolalar sirasiga kiruvchi talabalarga bazaviy stipendiya miqdorida stipendiya tayinlanadi va to'lanadi. Ya'ni bunday toifadagi talabalar o'quv semestrini "5", "4" hatto "3" baholarga yopgan taqdirda ham,

huquqiga ega. Hatto talaba to'lov kontrakt asosida talabalikka tavsiya etilsa, kontrakt to'lovlarini amalga oshirishga mas'ul shaxs ixtiyori bilan ta'lim olishning "stipendiya" va "stipendiyasiz" turini tanlaydilar.

O'quv semestri yakuni bo'yicha fanlarni o'zlashtirayotgan, alohida qobiliyat va iqtidor egasi bo'lgan, jamoat ishlarida faol, shuningdek, ijtimoiy himoyaga muhtoj davlat granti va to'lov-kontrakt asosida ta'lim olayotgan barcha talabalar belgilangan stipendiyalarga nisbatan qo'shimcha ravishda Jamg'arma mab-



lag'lari hisobidan 50 foizgacha miqdorda rag'batlantirilishi mumkin. O'zini-o'zi moliyalashtiradigan universitetlar maqomini olgan OTM larga ham ushbu qoidalar qo'llaniladi.

stipendiya miqdori o'zgartirilmaydi. Stipendiya talabani "oylik maoshi", uning kundalik ehtiyojlarini qondirish maqsadida o'qish va jamoat ishlaridagi faolligini inobatga olib to'lanadi. Hozirgi kunda nafaqat oliy ta'lim muassasalari talabalari, balki o'rta-maxsus va professional ta'lim o'quv yurtlari o'quvchilari ham stipendiya olish

Malika TOLLIBOYEVA, Samarqand davlat universiteti magistranti.

Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi tomonidan eksport qiluvchilarga banklar kreditlari, shu jumladan, eksport oldi kreditlari bo'yicha kredit summasining 50 foizigacha, biroq 4 milliard so'mdan oshmagan miqdorda kafillik berilishi belgilangan.



Bilim bu – maktabda o'rgatilgan hamma narsa esingdan chiqib ketgandan keyin o'zingda qolgan narsalardir. Savol berishdan to'xtamaslik juda muhim. Qiziquvchanlik odamga bejiz berilmagan. Chegaralarini bir marta kengaytirgan idrok hech qachon eski joyiga qaytmaydi.

Albert Enshteyn

...Muqaddas tushuncha borki, u qancha vaqt o'tsa ham o'z ahamiyatini yo'qotmaydi, millatning haqiqiy ustuni bo'lib qolaveradi.

U birgina so'z bilan ifodalansa-da, zamirida butun bir inson kamol topadi.

U barchamizning mehr topadigan va doim bizni kutadigan yaqinlarimiz bor maskan, oila, deya atalmish dargohdir.

Oila barpo bo'lar ekan, uning qanchalik mustahkam bo'lishi bevosita bo'lajak vakil va vakilalarga bog'liq. Oilaning totuv va farovonligiga ayol va erkak birdek mas'uldir. Bu yo'lda ulardan mas'uliyat, sabr va ham aqlan, ham jismonan yetuklik talab etiladi. Chunki ular millatning, mamlakatning ravnaqini qo'llarida tutib turuvchi kelajak sohiblarini tarbiyalovchi shaxslardir.

Butun dunyoda jadal sur'atlarda kechayotgan o'zgarishlar insonlarning kundalik turmush tarziga ham ta'sir o'tkazmay qolmayapti. G'arb madaniyatining kirib kelayotganligi, yoshlarning ommaviy madaniyat ta'siriga tobora ko'proq tushib borayotganligi, o'smirlarning ma'naviyatiga, tafakkur va dunyoqarashiga ham bevosita ta'sir o'tkazmoqda.

Ana shunday keskin bir vaziyatda o'sib kelayotgan avlodning aksariyati oila atalmish qo'rg'onning asl mohiyatini unutilib, uni moddiyat va boshqa ahamiyatsiz tushunchalar bilan bog'lashmoqda. Vaqtinchalik hoy-u, havas zamiriga qurilgan oila borki, ko'p o'tmay zavol topadi. Eng yomoni esa, bu dargohda shakllantirilishi lozim bo'lgan odob, axloq, tarbiya, ma'naviyat, hurmat singari tushunchalarning ota-ona tomonidan to'liq anglab yetilmayotganligi ortidan voyaga yetayotgan farzandlarning insoniy

fazilatlaridan, bolalik baxti-yu, oilaviy totuvlikdan mosuvo bo'layotganligidir.

Azrimagan kelishmovchilik, dilxiralik va soniyalar-gagina bo'lsa-da g'azab otiga minish natijasida darz ketayotgan qo'rg'onida farzandlar yo otasini, yo onasini tanlashdek og'ir tanlov qarshisida qolishmoqda. Oilada otaning ham, onaning ham alohida o'rni borligini, ularning har ikkalasidan berilajak mehr va e'tiborga birdek muhtojligini hatto bolalar anglab turgan bir paytda, bu "ota-ona"ning xayoliga ham kelmayapti.

Bu ham yetmagandek, oila buzilgach norasi-

OILA – KELAJAK QO'RG'ONI

dalarning ko'pchiligi qarindoshlar yoki begona shaxslarning qo'lida qolib, mehr va e'tiborga mushtok bo'lib o'smoqda. Yuqoridagi sabablarni inobatga oladigan bo'lsak, dunyo miqyosida sodir etilayotgan turli jinoyatlarning katta qismi yoshlar hissasiga to'g'ri kelishi ham hayratlanarli holat emas.

Bolaga yetarlicha mehr bermaslik, oila atalmish muqaddas tushunchani yengil-yelpi qarashlar bilan zavol toptirish, tarbiyada sustkashlikka yo'l qo'yish, ma'naviy va axloqiy muammolarni o'z vaqtida bartaraf etishga harakat qilmaslik, ota-onalik zalvorini ko'tarishga tayyor bo'lmay turib, katta hayot ostonasini hatlash jamiyatda turli bo'shliqlar yuzaga kelishiga zamin yaratib, kelajak avlodning taqdiriga salbiy ta'sir o'tkazishi, shubhasiz.

Gulnur OMONOVA.

Maktabga qo'ygan ilk qadamingizni eslay olasizmi? O'sha vaqtda boshingizdan o'tkazgan ichki-kechinmalar, hayajon va quvonchingiz kechagidek yodingizdadir.


TA'LIM YO'LIDAGI YARIM ASRLIK UMR

Ota-onadek g'amxo'r va farzandlar kelajagi uchun qayg'uruvchi, to'g'ri yo'l ko'rsatishga sidqidildan harakat qiluvchi yagona inson ham, aynan, ustozlarimizdir. Erishgan yutuqlarimizni ko'rib sevinuvchi, sal qo'qilsak dard yutuvchi ham ularning o'zidir. Vatan kelajagi va ravnaqi uchun fidokorona xizmat qilib, yosh avlodni ona yurtga bo'lgan muhabbatini oshirishda xizmat qilayotgan ana shunday fidoyi o'qituvchilardan biri Gulnora Ashurovadir.



Ustoz o'zining sofdil va kamtarinligi, kasbiga nisbatan mehrga limmo-lim qalbi bilan boshqa kasbdoshlari orasida ajralib turadi. U 46 yillik hayotini, aql-idroki, bilim va zehni, qalb qo'ri-yu mehr va shijoatini bilim berishga, o'quvchi-shogirdlari kamoliga baxshida etgan ustozdir.

Har bir o'quvchining ichki dunyosi, kechinmalari va dunyoqarashini bilib, ulardan hayot yo'llarida qoqilmasliklari uchun qimmatli maslahat va tavsiyalarini ayamagan Gulnora Ashurova bugun mazkur sohada faoliyat yuritayotgan ko'pgina pedagoglarga, o'qituvchilikdek sharaflilik kasb etagini tutib kelayotgan yoshlarga o'rnak bo'ladi.





OLIV TA'LIM MUASSASALARI:

“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti

Bugungi kunda universitet mamlakatimizning eng mashhur va nufuzli universitetlaridan biriga, turizm va madaniy meros yo‘nalishidagi yagona oliy o‘quv yurtiga aylandi.

TURIZM TA'LIMI SOHASIDA YETAKCHI UNIVERSITET

Universitetni tashkil etish tashabbusi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan Xitoyning Sindao shahrida bo‘lib o‘tgan “Katta Sakkizlik” Shanxay hamkorlik tashkiloti davlat rahbarlarining sammitida ilgari surildi.

Ko‘p o‘tmay, Prezidentimiz sa‘y-harakatlari bilan mamlakatimizda birinchi “Ipak yo‘li” xalqaro turizm universiteti tashkil etildi. 2021-yil oktabrdan boshlab, shuningdek, Prezidentimizning tegishli qarori (5270-sonli) bilan universitet “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti



deb o‘zgartirildi.

Endi tashkil qilingan universitetga rektor etib O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o‘rinbosari, Turizm va madaniy meros vaziri Aziz Abduhakimov saylandi. Qisqa vaqt bo‘lishiga qaramay, bugungi kunda universitet mamlakatimizning eng mash-

hur va nufuzli universitetlaridan biriga, turizm va madaniy meros yo‘nalishidagi yagona oliy o‘quv yurtiga aylandi. Universitetda mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan qator mutaxassisliklar bo‘yicha 2 682 nafar talaba tahsil olmoqda.

Universitetda barcha kunduzgi darslar ingliz tilida olib boriladi. Rus, xitoy, nemis, turk va fransuz tillari ikkinchi chet tili sifatida o‘qitilmoqda. Sirtqi ta‘lim shaklida o‘zbek va rus tillaridan foydalaniladi.

Universitetda talabalar uchun 5 kunlik o‘quv haftasi, ta‘lim sifati va samaradorligini oshirish maqsadida bir o‘quv semestrda 5 tadan ortiq fan o‘qitilmasligi joriy etilgan.

UNIVERSITET SENATI TUZILDI

Shuningdek, universitet faoliyatining joriy boshqaruvi muvofiqlashtirish va uning jahon ta‘lim makoniga jadal integratsiyalashuvini ta‘minlash maqsadida Universitet Senati tuzilib, uning Nizomi ishlab chiqilib, tasdiqlandi hamda Oliy Kengashning birinchi yig‘ilishi o‘tkazildi. “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros

xalqaro universiteti Senati tarkibiga professor-o‘qituvchilar, kafedra mudirlari, Talabalar parlamenti prezidenti, Ish beruvchilar kengashining bir qancha a‘zolari va mutaxassislar kiradi.



Batafsil QR kod orqali bahramand bo‘ling!



Batafsil QR kod orqali bahramand bo‘ling!



Unda universitet rektori Aziz Abduhakimov ishtirok etib, bugungi kunda asriy orzular ushalib, turkiy davlatlar o‘zaro hamkorlikka kirishganligi va bu yo‘lda oliy ta‘lim muassasalari rektorlari ham amaliy jarayonlarda faol ekanligi xususida gapirib, tadbir ishiga omad tiladi.

“Turkiy davlatlari tashkilotining Turk Dunyosi Universitetlari Ittifoqi” ning maxsus yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi



Batafsil



Turk Dunyosi Universitetlari Ittifoqi kengashining universitetimizda bo‘lib o‘tgan maxsus yig‘ilishida Qozog‘iston, Turkiya, Ozarboyjon, Qirg‘iziston, O‘zbekiston davlatlaridan 50 ga yaqin a‘zo universitet vakillari va ekspertlar ishtirok etishdi.

Yig‘ilishda a‘zo yetakchi universitetlar rektorlari tomonidan akademik hamkorlikni rivojlantirish natijasida Turk Dunyosi universitetlari o‘rtasidagi hamkorlikni kengaytirish va mustahkamlash, tajriba va bilimlarni almashish hamda qo‘shma ta‘lim va tadqiqot dasturlarini ishlab chiqish imkoniyatlari muhokama qilinib, amaliyot dasturlarini yaratish va o‘quv standartlarini takomillashtirish bo‘yicha fikrlar almashildi.



SHHTga a‘zo bo‘lgan turli mamlakatlardan, xususan, Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Pokiston, Eron va boshqa davlatlardan kelgan 45 nafar talaba-yoshlar “Ipak yo‘li” universi-

BIRINCHI PROREKTORIMIZ CHINGIZ AYTMATOV MEDALI BILAN TAQDIRLANDI

Taniqli turkolog-olim, filologiya fanlari doktori, professor Jo‘liboy Eltazarovga Turkiya Respublikasining Anqara shahrida Xalqaro Turkiy Madaniyat Tashkiloti TurkSOY tomonidan ta‘sis etilgan Chingiz Aytmatov medali topshirildi.

Jo‘liboy Eltazarov dunyo va turkiy adabiyotning buyuk namoyandasi Chingiz Aytmatov nomi bilan ataluvchi ushbu medal bilan turkiy til, madaniyat va san‘atni uzoq yillar davomida chet ellarda targ‘ib qilishdagi hamda turkiy xalqlar o‘rtasida qardoshlik va hamkorlik aloqalarini mustahkamlashdagi xizmatlari uchun taqdirlangan.

Olim o‘zining mukofotga javoban so‘zlagan qisqa nutqida TurkSOY Boshqaruviga kamtarona mehnatlarini yuqori baholanganini uchun tashakkur aytib, bundan buyon ham turkiy til madaniyatlarini o‘rganish va targ‘ib qilishda bor kuch va imkoniyatini ishga solishini bildirdi.



Batafsil

XORIJY OTMLAR BILAN HAMKORLIK YO‘LGA QO‘YILGAN

tetida tahsil olishib, bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlashmoqda.

AQSH, Avstraliya, Fransiya, Eron, Germaniya, Buyuk Britaniya, Rossiya, Xitoy, Qozog‘iston va boshqa qator rivojlangan davlatlardan tashrif buyurgan tajribali o‘qituvchi va professorlar faoliyat yuritayotganligi ta‘lim tizimining yanada yaxshilanishi, talabalarning yuqori saviyada bilim va ko‘nikmalarni egallashlariga zamin yaratmoqda.



Momo toliqdi. Tizzasi achishib, tomirlari tortishganday bo'ldi. Enkayib tovoniga bir-ikki urdi, yaxshi bo'lmadi. Katta ro'molining uchi yerga tegib chang bo'lgani qoldi.

Qaytib qaddini rostlashdan ko'ra, tuproq va tosh aralash yo'lining o'rtasida hansirab o'tirib oldi. Peshonasida yaltillayotgan terni ro'moli bilan artib, keng, uzun, qizil gulli ko'yilagini silkiib ichiga shamol haydadi. U o'tirganicha tez-tez, chuqur-chuqur uf tortar, keyin birdan tavba qilib, shukronalik keltirardi. Tesha momoning o'n qadam ham yurmasdan kavushining ichini ko'mib ketayotgan tuproq ko'cha badiga urdi. Bo'lmasa, avvallari bu yerdan necha bora ko'z ochib-yumguncha o'tib, qishlog'iga yetib olgan, hozir ham buning uddasidan chiqishim tayin deb o'ylagandi. Qayda, ancha kuchi qaytibdi. Yoshligi ketibdi. Shu yerga kelguncha o'n martalar dam oldiyov. Issiq va chang baloday g'ashiga tegyapti. Yo'lining na boshida, na adog'ida biror zot ko'rinadi. Yo'l xuddi tuproq oqib yotgan daryoday mavjlanib turibdi.

Uydan katta ro'mol o'rab chiqqaniga afsuslandi. Bunday jaziramali kunda bu uzun pushti ro'molni o'rab yurish biram azob. Nima qilsin? Qanday qilib kuyovining uyiga kichkina ro'mol o'rab borsin? Nomusga qolmaydimi? Tinch o'tirgani ma'qul! Har holda qaynona degan oti bor, o'ziga yarasha hurmati bor.

Boya bir-ikkita o'tkinchi shaldiroq mashina o'tganda puliga qizg'anib to'xtatmadi. Bo'lmasa, ro'molini uchiga tugib qo'yilgan tangalari bor... Biroz kam pul berganda ham, uning yoshi hurmati yo'q deyishmasdi. Lekin birovga kuni qolishni istamadi. Pulini esa qizg'anadi.

Momo dasht yo'lining o'rtasida issiqdan jizg'anak bo'lib o'tirardi. O'zining nafas olishi ham ichiga o't purkayotganday tuyular, yurishdan

erinar, borgan sari madorsizlanib borardi. Hansirashi oshib borar, lablari qurqshab, suv ichgisi kelardi.

"Bu cho'lda suv qayerda, faqat tuproqqina bor. Bu yerda tuproqqa bo'kib o'lish mumkin".

Lekin momo yo'lni bosib o'tishiga ishonchi komil. Axir, necha marta shu

Javlon JOVLIYEV

KAPTARLAR

yerdan shamol singari yelgan. Bu gal ham bir ammallab yetib oladi. Faqat nevaralari chalopni ichib tugatib qo'yishmasa bo'lgani. Muzdek chalopga yetib borsa bo'ldi...

Momo yana yo'lga tushdi. Uning bosgan izlardan chang ko'tarilar, lekin bu chang ham qaynoq issiqdan hayiqqanday birdan g'oyib bo'lar, xuddi namiqib qolgan gurgut donasining bir o't olib-o'chib qolishiga o'xshardi. Tepasida quyosh tirshayib turib jonini olar, yenglari keng ko'yiligidan har zamon ichiga oralagan jimitday shamol joniga huzur edi.

U yo'l boshidan mashinaga o'tirmaganiga afsuslansa-da, endi o'lsa ham o'tkinchi mashinalarga chiqmaydi. Axir, shuncha yo'lni piyoda bosib o'tdi, bu mashaqqat bekorga ketsinmi?

Tesha momo kavushiga kirgan tuproqni to'kib tashladi, yalang oyoqlarini tosh qum aralash tuproq kuyirdi. U tovonida turib qoldi va tezda kavushini kiyib yana yo'lida davom etdi.

Negadir qo'shiq hirgoyi qilgisi keldi. Avvallari onasi bilan olis bir yo'lga chiqqanlarida, yoki osmon-

ga sochilgan cheksiz yulduzli tunlarda aytadigan qo'shiqni aytgisi keldi. U inson zotini burdalab tashlashga tayyor turgan saraton issig'ida yolg'iz qadim momolardan qolgan qo'shiqlarni yosh qizchalardan kuyulay boshladi.

"Jun ko'yilgim bor-a,
Tol dutorim bor-a,
Teshayning to'yida
Bir o'ynarim bor-a"

KO'K, OQ VA OLA

yegan oyoqlari bunga yo'l qo'ymasdi. U bir yoqasi yontoqzor, bir tomoni boshadog'i yo'q paxtazor bo'lgan yo'ldan qishlog'i tomon odimlab borardi.

Qizini eri tushmagur o'las qilib uribdi. Shunga Tesha momoning ichiga chiroq yoqsa yorishmaydi, yo'lgan yo'li unmaydi. Kuyovini qarq'ay desa, Xudodan qo'rqadi. Nevaralarining otasi, ularga osh-non berib turibdi. Ko'rgani bormaganda kuyovining bundayligini bilmas ham ekan. Qizini ko'rib qo'rqib ketdi. Ko'zi to'q jigarrang bo'lib, fonarning ko'ziday bo'lib bo'rtib turar, o'zi esa piq-qillab yig'lardi. Kap-katta ayolning bolalari qoshida yig'lab o'tirishi g'alati ko'rinar ekan. Momoning ko'zlari ham namlandi, lekin buni hech bir zotga sezdirmedi. Sezdirib bo'ladimi?

"Qo'ling singur shunaqa ham urasanmi? O'zingning xotining-ku! U senga erkak kishimi, nozikkina et bo'lsa..."

Choli tirik bo'lganda kuyovini tiyib qo'yardi.

Momo bu qo'shiqni qachon aytgani, o'zi umuman oxirgi marta qachon qo'shiq kuylaganini ham eslolmadi. Xayolida faqat go'dakligi va munkayib qarigan hozirgi kuni gavdalanardi.

Hikoyaning to'liq elektron va audio varianti bilan quyidagi QR kodlar orqali bahramand bo'ling!



Salom tegirmonchi qo'lni hammadan oldin payqadi. Agar uning oilasi jo'jabirday jon, ustiga ustak, oz-moz xasisligi bo'lmaganda, har bir tiyinni xuddi jonini olishayotganday baxillik bilan ishlatmaganda, ehtimol, qo'lni sezmagam ham bo'lardi...

Lekin uning oilasi katta bo'lib, tegirmondan tushgani oila boqishga yetmagani uchun otasidan qolgan kasbni ham qilardi: u bola-chaqasi bilan tandir qilib sotar, shu sababli uni goh "Salom tegirmonchi", goh "Salom tandirchi" deb chaqirishardi.

Ba'zi tersotaliklar "Salomboyni bitta laqab bilan chaqiraylik, odam chalg'ib ketyapti!" deganda Panji muallim "ikkala laqab ham bir-biriga bog'liq, tegirmon aylanib tursa, tandirdan non uziladi, un bo'lmasa, tandirni kim oladi?!" degan ekan.

Ana shu ikki laqabli Salom bir kuni do'ppisini olib, bundoq xomcho't qilsa, keyingi haftada uyida oziq-ovqatga odatdagi haftalardan ko'proq xarajat qilinganday tuyuldi. Xaltadagi un ham oldingi oyga qaraganda ancha oldin bo'shadi. Yog', piyoz, kartoshka ham mo'ljaldan oldin tugab qoldi. Bundan tashqari, u bolalarining qorni to'yimay qolayotganini sezardi: ovqatdan so'ng yana non va shakarga ruju qo'ya boshlashdi. Shunda buning saba-

bini aniqlashga kirishdi. Xotini yeguliklarni hamishagidan kam miqdorda qilmayotganini aytdi. Balkim, bolalari katta bo'lib qolib, oshqozonlari ko'proq ovqat talab qilayotgandir? Balkim birortasi boshqalarining haqini ham bildirmasdan ikki hissa paqqos tushirayotgandir? Ana shu shubhada tandirchi ovqat mahali oiladagi har bir og'izni birma-bir kuza-

Nazar Eshonqul

QO'L

ta boshladi. Bolalari ham keyingi paytda qorinlari ovqatga to'yimayotgani uchunmi, oldiga qo'yilgan taomdan bosh ko'tarmay paqqos tushirishga o'tishgandi.


Tandirchi kuzata turib, ko'zlariga ishonmadi - oilada oltita jon, ammo ovqatda yettinchi qo'l ham bor edi - anovilar to'ng'ich, o'rtancha bolalarining qo'llari, bunisi xotininiki, kenja o'g'linikini hali qo'l ham

deb bo'lmaydi - katta qo'shiqqa o'xshaydi. Lekin anovi qo'l kimniki? U birdan hushyor tortdi: ko'zlarini yumib-ochdi. Nazarida bolalarining va ayolining qo'lidan tashqari yana bir begona qo'l ovqatga sherik bo'layotgan edi. U qo'lni aniq ko'rib turardi: eng qizig'i, qo'l bor edi, ammo egasi ko'rinmasdi. Qo'l ham ovqat olayotganda paydo bo'lib, keyin g'oyib bo'lardi. Salom tandirchi qo'lni ko'rgach, dastlab, aqldan ozmayapmanmi, deb o'yiladi. Ammo boshqa kunlari ham u xotining, o'zining qo'lga o'xshamaydigan begona qo'lni aniq ko'rdi. Qo'l bolalari bilan qo'shilib, kaftini to'ldirib ovqat olar, bo'g'iz barobar ko'tarilganda taom xuddi havoga sin-



(HIKOYA)

gib ketgandek g'oyib bo'lardi. Ovqat bilan ovora bo'lgan na bolalari, na xotini buni sezardi. Dastlab tandirchi bu shubhasini oshkor qilib, bola-chaqasi oldida kulgiga qolgisi kelmadi. U bir necha kun obdon kuzatdi. Yo'q. Begona qo'l rostdan ham mavjud edi. Ular bilan qo'shilib, ovqat yer, sin-



Insonning eng birinchi burehi aslidagiday bo'lishi, "bu - yaxshi, bu - yomon" degan gapni mardona ayta olishidir.

(Romen Rollan)

dirilgan nonni olar, go'shtga sherik bo'lar, hatto mevalardan ham tatib ko'rar, dasturxonda yegulik qolmasa, g'oyib bo'lardi. Salom tandirchi mening ko'zimga ko'rinyapti deb o'yilab, xotiniga bildirmay o'zini mulla Abzalga o'qitib ham keldi. Ammo o'qish ta'sir qilmadi: qo'l baribir unga xuddi ko'zga chiqqan chipqondek ko'rinarverdi. Salom tandirchi bir kuni axiyri jazm qildi: u payt poylab turib, bolalarining qo'llari orasida turgan, qovoq mantidan olib havo barobar ko'tarilayotgan qo'lni shartta ushlab oldi.

— Bu kimning qo'li? — deb so'radi u qo'rquv va hayajon bilan.

Hamma uy sohibining qahrli ovozidan bir sapchib tushdi va shoshib o'z qo'llariga, keyin,

hech narsa tushunmay, ovoz egasiga qarashdi va otalari ushlab turgan qo'lga ko'zlari tushishdi.

Tandirchi uzun, nozik, ayni paytda shapoloqday qo'lni ushlab turar, loy qoriyverib, muskullari pishib ketgan baquvat panjalar orasida qo'l xuddi qamchi kabi bilonglardi.

Ana shunda butun oila egasi yo'q qo'lni ko'rdilar va qo'rqanlaridan baqirib yuborishdi. Salom tandirchi ichida yengil tortdi: demak, qo'l hammaga ko'rinyapti, gap o'zida emas. Qo'lning bilakdan pasti ko'rinish turar, go'yo kesib tashlangan qo'lga o'xshardi. Ammo qo'l kesilgan emasdi, shunchaki, tirsakdan naryog'i havoda ko'rinish turardi. Egasi esa umuman ko'rinmasdi.





Insonlardagi go'zallik
bu - yuzdir,
yuzdagi go'zallik esa -
ko'zdir.

Ammo, insonni inson
qilgan bu uning
tilidan chiqadigan -
so'zdir...
(Jaloliddin Rumi)



Ko'ngil torimni chertsam, yoshlik kuyi taralur.

Inson nafaqat kuchi va qobiliyatlari, balki
kamchiliklari, nuqsonlari va zaif tomonlari bilan
ham bir butundir. Hech birimiz mukammal emasmiz.

O'ZINGIZNI KAMSITMANG

Hammamizning ijobiy va salbiy tomonlarimiz, kamchilik va xatolarimiz bor. Eng muhimi, o'zingizni borimizcha qabul qilishimizdir.

O'zingizda qandaydir xato yoki aybni ko'rsangiz, o'zingizga jahil qilmang, o'zingizdan uzoqlashmang. O'zingizni borimizcha qabul qiling, chunki qabul qilish chiroyli tarzda davolash va shifo usulidir. Qabul qilishni odat qilganingizda o'zingizni ko'proq baxtli va xotirjam his qilassiz.

Aslida, biz hammamiz darz ketgan chelaklarmiz.

Hindistonda bir xizmatkor yigit bo'yniga osgan tayoqning ikki uchiga ikkita katta chelak bilan suv tashir ekan. Chelaklardan birining yorilgan joyi bor ekan. Suv to'ldirilgan butun chelakdan daryodan uygacha bo'lgan

uzun yo'l davomida umuman suv to'kilmas, darz ketgan chelakda esa suv yarimlab qolar ekan. Bu holat ancha vaqtgacha davom etibdi.

Xizmatkor yigit har safar xo'jayinining uyiga bir yarim chelak suv olib



borishga muvaffaq bo'larkan. Butun chelak o'zining muvaffaqiyati va mustahkamligi bilan faxrlansa, darz ketgan chelak o'z vazifasining faqat yarmini bajarayotganidan uyalarkan. Shu

yo'sinda oradan ikki yil o'tibdi.

Kunlarning birida daryoning bo'yida darz ketgan chelak xizmatkor yigitga qarab shunday debdi:

— Men o'zimdan uyalaman, buning uchun sendan kechirim so'ramoqchiman.

— Nima uchun? so'rabdi yigit, — Nimadan uyalasan?

Yoriq chelak javob beribdi:

Ikki yildan beri yorig'imdan suv sizib chiqqani bois vazifamning yarminigina bajara olaman, xolos. Mening aybim tufayli sen shuncha mehnat qilsang ham, mehnatingga yarasha mukofot olmaysan. Xizmatkor jilmayganicha darz ketgan chelakka javob beribdi:

— Xo'jayinning uyiga qaytayotganimizda yo'l chetidagi gullarga e'tibor berishingni istardim.

Yoriq chelak xo'jayinning uyi tomon eltadigan yo'l chekkasida quyosh nuriga intilib bo'y cho'zgan bir qator turfa xil gullarni ko'z oldiga keltirdi. O'sha gullar uning ham e'tiborini tortganini va ularni juda yoqtirib qolganini esladi; lekin yo'l oxirida yana suvining yarmini yo'qotganiga achinib, xizmatkor yigitdan yana

uzr so'radi...

Yigit chelakka bir zum tikilib qaraganicha so'radi:

— Yo'lning faqat sen tomonida gullar borligini va narigi mustahkam chelakning tomonida hech qanday gul yo'qligini payqaganmisan? Buning sababi men sening qusuringni bilishim va undan juda yaxshi foydalanishimda... Yo'lning sen tomonga to'g'ri keladigan qismiga gul urug'laridan ekdim va har kuni daryodan qaytarkanmiz, sen ularni sug'ording. Ikki yildan beri men o'sha go'zal gullardan terib, xo'jayinning dasturxonini bezamoqdaman. Agar sening bunday kamchiliging bo'lmaganida, ular o'z uyida bunday go'zallikni ko'rib, dillari yayramasdi.

Darhaqiqat, biz hammamiz yoriq chelaklarmiz, Hammamizning o'z kamchiliklarimiz bor. Kamchiliklarimiz tufayli o'zimizdan g'azablanib yoki o'zimizdan yuz o'girishning o'rniga biz ularni qabul qilishimiz va ulardan to'g'ri saboq chiqarishimiz kerak. Eng muhimi, o'zingizni past baholamasligimiz lozim. Boshqalarning ko'ziga kamchilikdek ko'ringan narsa, ehtimol, bizning mo'jizamizdir. Biz bunga shunday ko'z bilan qarashimiz darkor.

ANVAR ANVAROV XALQARO TURNIRDA OLTIN MEDALNI QO'LGA KIRITDI



Shveysariyaning Jeneva shahrida yengil atletika bo'yicha "Atletica Geneve - EAP" xalqaro turniri bo'lib o'tmoqda. Ushbu nufuzli musobaqada ishtirok etayotgan O'zbekiston terma jamoasi a'zosi Anvar Anvarov uzunlikka sakrash dasturida oltin medalni qo'lga kiritdi.

Butunjahon yengil atletika federatsiyasining taqvimidan o'rin olgan "bronza" darajasidagi ushbu turnirda Anvar Anvarov 8,22 metr natija qayd etdi. Ushbu natija bilan u 1985-yildan beri o'zgaray kelayotgan o'zbekistonlik atletlarning rekordini yangiladi. Turnirning uzunlikka sakrash dasturida Kuba vakili Alexandro Parada 8,10 metrga sakrab ikkinchi o'rinni egalladi. Uchinchi o'rin esa Gangkong sportchisi Min Changga nasib etdi. U 7,82 metr masofani zabt etdi. Hamyurtimizni g'alaba bilan samimiy tabriklaymiz!

Atrofni kuzatar ekansiz, osmonda keng qulochin yozib, parvoz etayotgan qushlarga ko'zingiz tushadi. Oldiga maqsad qo'yib harakat qilayotgan insonlarni erta-sahardan bolalari va o'zi uchun ozuqa ilinjida keza-yotgan qushlarga qiyoslashimiz mumkin.

Yerga umid bilan urug' sohib, yurtdosh-u, zamondoshlarining to'qligi, farovonligi uchun xizmat qiluvchi noz-ne'matlarni yozning jaziramasi-yu, kuzning injiq ob-havosiga qaramay halol peshona teri bilan yetishtirib kelayotgan fidokor insonlar, bobodehqonlar mehnatini alohida e'tirof etmog'imiz zarur.

Yelkasida sabrdan ketmon, belida matonatdan belbog' yasab erta-yu kech mehnat qilayotgan bu zahmatkashlarsiz siz-u bizning



NOZ-NE'MATLAR ZAMIRI — BOBODEHQON MEHNATI

dasturxonimiz to'kin, ro'zg'orimiz but va fayzli bo'lmaydi. Bobodehqonlarimiz mehr berib, parvarishlab undirmasa, biz qish-u yoz sevib tanovvul qilayotgan noz-ne'matlar, qozonimizni qaynatib turgan sarxil yegulik-u, sabzovotlar qayda edi deysiz?!

Qadimdan dehqonchilik kasbiga eng afzal kasblardan biri sifatida qaralgan, negaki ularning mehnatidan bir necha shaxs emas, xalq manfaat oladi, ularning sha'niga duo qiladi, hosiliga baraka rizqiga kenglik tilaydi. Bobodehqonlar, sizlar borki, dasturxonlarimiz to'kin va fayzli!

Marvaridbonu JUMAYEVA.



Demishlar har qanday taomning totti,
Berilgan mehrning miqdorin so'zlar.



OSHPAZLIK TANLOVNING RESPUBLIKA BOSQICHI SAMARQANDDA BO'LDI



*Azamat ovqat pishirib,
100 million oldi*

"Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida oshpazlik, tikuvchilik hunarmandchilik, sartaroshlik hamda qandolatchilik singari yo'nalishlarda bo'lib o'tgan mazkur musobaqaning oshpazlik yo'nalishi respublika bosqichi Samarqandda o'tkazildi.

Alisher Navoiy nomli istirohat bog'ida ko'tarinki ruhda o'tkazilgan final bosqichida yurtimizning barcha viloyatlaridan ishtirokchilar qatnashishib, o'z mahoratlarini sinovdan o'tkazishdi.

Qizg'in va murosasiz kechgan bahslardan so'ng eng kuchlilar saralanib, g'olib va sovrindorlar aniqlandi.

Yakuniy natijalarga ko'ra, 1-o'ringa Azamat Ro'ziboyev (Toshkent shahri) munosib deb topilib, 100 million so'm pul mukofoti bilan, 2-o'rinni Abbos Mansurov (Sirdaryo viloyati) egallab, 75 million so'm pul mukofoti bilan, 3-o'rinni Shohruh Muqimov (Qashqadaryo viloyati) band etib, 50 million so'm pul mukofoti bilan taqdirlandi. Shuningdek, musobaqada qatnashgan barcha yosh oshpazlarga faol ishtiroki uchun 15 million so'mdan pul mukofoti taqdim etildi.

DIQQAT!

Qadri, mushtariylar!
"Samarqand yoshlari" gazetasida
"Shevam — faxrim" loyihasi.

Unda siz, azizlar tomoningizdan nafaqat viloyatimiz, balki respublikamizning barcha hududlariga taalluqli bo'lgan shevalarning o'ziga xosligi va jozibasini aks ettirib yuborilgan eng sara ijodiy ishlarni (hikoya, maqola, she'r, xabar yoki audio xabar) gazetamiz sahifalari hamda ijtimoiy tarmoqlarimizda omma e'tiboriga havola etib boramiz.

Loyihamizda ishtirok etib, shevangizning go'zal qirralarini biz bilan birgalikda namoyon eting.

MEHR

Kech kuz edi. Hovoda qishding sovug'i kezib jurardi.
— Yena, keling oyag'ingizni juvib qo'yayik, — dedi aka-uka.

— Vay, yanami? — so'radi enasi juragi ovrib. — Intirnit, deg'an bolo chig'di, meni tinchim jo'g'aldi.

— Kelaqoling endi! — yelanishdi bachalari. — Shu ovxirgisi!

Yena noiloj ko'ndi, hovliga chig'ib, supaga o'tirdi. Bachalari darrov tog'oraga krandan suv to'ldirib olib kelipti. Bachalar biri olib, biri qo'yib, enasining oyag'ini "juvib", to'rt-besh martadan rasmga tushibdi: eng yoxshisini intirnitga qo'yadi. "Fatosessiya" tugagach, ular qilgan ishidan xursand, xonalariga shoshildi. Yena ham soviq suvda oyog'i sovqatgan bo'sayam, xursand edi:
— Hah, o'zimdi mehribonlarim-a!

Zebiniso JO'RAYEVA,
Surxondaryo viloyati Qumqo'rg'on
tumanidagi Qoraturba qishlog'i aholisining
shevasi asosida oqqa ko'chirdi.

TUT

*Bobom ekkan keksa tut,
Ko'p tarixning guvohi.
Necha yilki bu tutning,
Ko'pga tushgan nigohi.*

*Umri bo'yi mevasin,
Insonlarga ulashgan.
Shifo topib dardiga,
Bemorlar dovon oshgan.*

*Shuning uchun bu tutning
Qadri buyuk biz uchun.
Ta'rifiga she'r bitib,
Maqtanmayin men nechun?!*

Nigina AMIROVA.

Hurmatli mushtariylar, gazetamizning mazkur soni, undagi materiallar jozibadorligi, ko'lami hamda saviyasi haqidagi fikrlaringizni ushbu QR kod orqali bildirishingiz mumkin!



**Samarqand
yoshlari**

Muharrir: Vahobjon AVAZOV

AXBOROT HAMKORLARIMIZ:

Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi, Maktabgacha va maktab ta'limi, Sog'liqni saqlash, Sportni rivojlantirish, Turizm va madaniy meros, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik boshqarmalari, oliy ta'lim muassasalari va viloyat, tuman(shahar) hokimliklari

Gazeta Samarqand viloyat Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi tomonidan 2022-yil 31-mayda 09-17 raqam bilan ro'yxatga olingan. Obuna indeksi: 5590, 3250 nuxxada ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-3 Buyurtma _____ Gazeta «Samarqand yoshlari» tahririyatida sahifalandi. «Sherdor plyus poligraf» MCHJ bosmaxonasida chop etilgan.
Korxonalar manzili: Samarqand shahri U. Tursunov ko'chasi 82-uy.

Bosishga topshirish vaqti:
soat 17:00 da. 2023-yil 14-iyun
Bosishga topshirildi: 17:00 da

Bahosi
kelishilgan narxda

Ⓣ – tijorat material

Manzil: Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi 80-uy, Telefon: +998933597378